XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-oktabr VI-79-132-8-115-K/24 Muzrabot tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonida belgilangan tadbirlarning “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab - quvvatlash yili”da amalga oshirilishi belgilangan vazifalar tasdiqlangan Davlat dasturining tumandagi ijrosi to‘g‘risida

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish hisobidan xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Xolniyozovning hisobotini tinglab hamda deputatlar tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, xalq deputatlari tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Xolniyozovning “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarning 2024-yilning o‘tgan davri davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari (S.Xolniyozov, J.Jumayev, F.Raxmonov, A.Bozorov, Z.Muxammadiyev, S.Berdiyeva) tumandagi korxona va tashkilotlari rahbarlari bilan birgalikda:

tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da

amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmonida belgilangan vazifalar yuzasidan 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejalari ijrosini muddatlarida ta’minlash chorasini ko‘rish;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024-yilda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishini ta’minlash;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta’minlash;

Davlat dasturining ijrosini bandma-band tahlil qilib, o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda dastur ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etib borish;

Davlat dasturining bajarilishi, belgilab berilgan topshiriqlarni amalga oshirish yakunlariga bag‘ishlangan tahliliy ma’lumotlarni tayyorlab, har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashi yig‘ilishlarida muhokama qilib borish uchun kiritish topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tumani Kengashi deputatlariga:

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilishi tasdiqlangan Davlat dasturida belgilangan vazifalar, chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirib borish;

Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarilishi yuzasidan mas’ullarning hisobotlarini tegishli doimiy komissiyalar yig‘ilishlarida tinglash, muhokama etish va bu bo‘yicha zaruratga ko‘ra monitoring o‘rganishlar olib borish hamda Kengash sessiyalari kun tartibi muhokamasiga kiritib borish tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Abdurasulov) ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish natijalarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning borishi to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlarni aholiga tezkorlik bilan yetkazish tavsiya qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



TANGIROV
TURSUNQUL
XO‘JAQULOVICH